



Received: April 2, 2025
Accepted: May 20, 2025
Available online: May 25, 2025

Nodira Safarova

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARIGA ISPAN TILI GRAMMATIKASINI O‘RGATISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot filologiya yo‘nalishi talabalariga ispan tili grammatikasini o‘rgatishda integrativ yondashuvdan foydalanish masalasiga bag‘ishlangan. Ishning dolzarbligi ispan tili grammatikasini o‘zlashtirishdagi murakkabliklar, shuningdek, til o‘qitish jarayonida turli yondashuv va metodlarning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash zarurati bilan belgilanadi. Integrativ yondashuv grammatik bilimlarni leksik, fonetik va madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Bu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilandi: (1) ispan tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va integrativ yondashuvning nazariy asoslarini o‘rganish; (2) OTMLarida ispan tili grammatikasini o‘qitishning amaldagi holatini aniqlash; (3) integrativ yondashuv asosidagi dars modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish; (4) filologiya yo‘nalishi talabalarining ispan tili grammatik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv materiallari va mashqlarini ishlab chiqish; (5) olingan natijalar asosida ispan tili grammatikasini o‘qitish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanildi: nazariy tahlil (til o‘qitish nazariyalari va integrativ yondashuv bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish), anketa so‘rovnomalari (talabalar va o‘qituvchilardan o‘quv jarayoni hamda integrativ yondashuvdan foydalanish bo‘yicha ma‘lumot to‘plash va ularni statistik tahlil

Nodira Safarova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: nodirasafarova806@gmail.com
ORCID iD: 0009-0002-4249-6609

INTEGRATIVE APPROACH TO TEACHING SPANISH GRAMMAR TO PHILOLOGY STUDENTS

ABSTRACT

This study focuses on the use of an integrative approach in teaching Spanish grammar to philology students. The relevance of the research is determined by the difficulties in mastering Spanish grammar and the need to ensure the harmonization of various approaches and methods in the language teaching process. The integrative approach aims to master grammatical knowledge in close connection with lexical, phonetic, and cultural contexts.

Several tasks were set: (1) to analyze existing approaches in teaching Spanish and study theoretical foundations of the integrative approach; (2) to identify the current state of Spanish grammar teaching in higher education; (3) to develop a lesson model based on the integrative approach and test its effectiveness; (4) to design educational materials and exercises for developing grammatical competence of philology students in Spanish; and (5) to develop practical recommendations for improving Spanish grammar teaching based on results.

The study used several research methods: theoretical analysis (reviewing literature on language teaching theories and integrative approach), questionnaires (collecting data from students and teachers on learning process and integrative approach use), experiment (teaching experimental group using integrative approach and control group using traditional methods), observation (monitoring lessons with integrative approach, analyzing techniques, and evaluating engagement), and interviews (discussions with teachers and students to identify advantages and disadvantages).

qilish), eksperiment (tajriba guruhini integrativ yondashuv asosida, nazorat guruhini esa an'anaviy usullar bilan o'qitish orqali til kompetensiyasini baholash), kuzatish (integrativ yondashuv asosida o'tilgan darslarni kuzatish, o'qitish uslublarini tahlil qilish va talabalar faolligini baholash) hamda intervyu (o'qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar o'tkazib, yondashuvning afzallik va kamchiliklarini aniqlash).

Tadqiqot natijalari ispan tili grammatikasini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarning grammatik ko'nikmalarini shakllantirish va umumiy til bilimlarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur ish filologiya yo'nalishi talabalar uchun til o'rgatishning innovatsion usullarini taklif etadi hamda integrativ yondashuv samaradorligini aniqlash orqali lingvodidaktika sohasidagi mavjud bilimlar bazasini boyitadi.

Xulosa shuki, integrativ yondashuv asosida OTMlarda ispan tilini o'qitish talabalarga lingvistik ko'nikmalarni puxta egallash, madaniy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish hamda umumiy bilim va kompetensiyalarini sezilarli darajada boyitish orqali til o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: filologiya yo'nalishi, ispan tili, kommunikativ kompetensiya, grammatika, integrativ yondashuv, grammatik kompetensiya, multimodal ta'lim, grammatik ko'nikma, lingvistik ko'nikma, lingvodidaktika.

KIRISH

Hozirgi globallashtirilgan dunyoda chet tillarini o'zlashtirish nafaqat shaxsiy, balki professional rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Jumladan, ispan tili dunyoda keng tarqalgan tillardan biri sifatida (400 milliondan ortiq kishi ona tili sifatida so'zlashadi va 600 milliondan ortiq kishi ikkinchi til sifatida o'rganadi), xalqaro munosabatlar, biznes, ta'lim va madaniy almashinuv sohalarida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ispan tilini samarali o'qitish metodikasini rivojlantirish zaruratini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni [PF-5847-son, 2019] oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlarini, ustuvor yo'nalishlarini va vazifalarini aniq belgilab berdi. Mazkur konsepsiya oliy ta'lim tizimining global talablarga javob beradigan holda rivojlanishini, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda amaliyotga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ayni konsepsiya ta'lim tizimining sifatini yaxshilash va yoshlarning

The findings can be applied to improve the process of teaching Spanish grammar, develop students' grammatical skills, and enhance their overall language proficiency. In addition, this study offers innovative teaching methods for philology students and enriches the existing body of knowledge in linguodidactics by assessing the effectiveness of the integrative approach.

To conclude, teaching Spanish in higher education institutions based on the integrative approach enables students to master linguistic skills, develop cultural and communicative competencies, and significantly enhance their general knowledge and skills, thereby increasing the effectiveness of language teaching.

Key words: philology, Spanish language, communicative competence, grammar, integrative approach, grammatical competence, multimodal education, grammatical skills, linguistic skills, linguodidactics.

amaliy bilimlarini oshirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishni nazarda tutadi.

Yuqori malakali filolog kadrlarni tayyorlashda chet tili, jumladan ispan tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion metodlarni qo'llash, til o'rganish jarayonini samarali tashkil etish talab etiladi. Integrativ yondashuv aynan shunday innovatsion yondashuvlardan biri sifatida, til o'rganishning turli aspektlari (grammatik, leksik, fonetik, madaniy)ni yagona tizimga birlashtirib, til kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi ispan tili grammatikasini o'zlashtirishning murakkabligi, shuningdek, tilni o'rganishda yondashuvlar va metodlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Ispan tili grammatikasi, o'zining tuzilishi, fe'l shakllari, zamon formalarining xilma-xilligi, murakkab subxunktiv shakllar tizimi bilan o'zbek tili grammatikasidan jiddiy farq qiladi. Bu esa talabalarga ispan tili grammatikasini o'rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda O'zbekiston OTMlarida ispan tilini o'qitish amaliyotida asosan an'anaviy grammatik-tarjima, kommunikativ yondashuv yoki to'g'ridan to'g'ri metodlar qo'llaniladi. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lsa-da, hech biri alohida holda til kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlay olmaydi. Integrativ yondashuv bo'lsa, ushbu metodlarning eng samarali jihatlarini birlashtirib, til o'rganish jarayonini yanada samarali va natijali qilishga yordam beradi.

Integrativ yondashuvning mohiyati va uning til o'qitishdagi ahamiyati

Integrativ yondashuv ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Integratsiya so'zi lotincha "*integration*" (tiklash, to'ldirish) va "*integer*" (butun) so'zlaridan kelib chiqqan. Bu atama dastlab matematika va fizika kabi aniq fanlarda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik pedagogika va til o'qitish metodikasida ham faol qo'llanila boshlagan. O'zbek pedagog olimi R.A. Mavlonova integratsiyani shunday ta'riflaydi: "Integratsiya – bu "butun" degan ma'noni bildiradi. "Integratsiya" so'zi lotincha "*integration-tiklash, to'ldirish*", "*integer-butun*" so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotidir. Alohida tizimlarning bog'lanishi va yagona bir narsaning yaratilishidir" [Mavlonova, 2005].

A.I. Hayitov integrativ ta'limni quyidagicha ta'riflaydi: "Integrativ ta'lim – o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratuvchi ta'lim hisoblanadi" [Hayitov, 2021].

Umuman olganda, integrativ yondashuvni til o'qitish kontekstida quyidagicha tavsiflash mumkin: "Til o'qitishda integrativ yondashuv grammatika, lug'at boyligi, fonetika va madaniyat kabi til o'rganishning turli jihatlarini yagona va uzviy tizimda uyg'unlashtiruvchi metodologiyani ifodalaydi hamda bu orqali talabalar til ko'nikmalarini kompleks va kontekstual tarzda rivojlantirish imkoniga ega bo'lishadi" [Larsen-Freeman & Anderson, 2011].

Rossiyalik olim A.L. Chekin o'z tadqiqot ishida ta'lim jarayonida integratsiyaning asosiy jihatlariga e'tibor qaratdi, integrativ komponentlarni ajratdi va tahlil qildi,

“mutanosib jarayon samaradorligining katalizatori sifatida” ularni amalga oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi [Chekin, 2005].

Integrativ yondashuvning asosiy g‘oyasi shundaki, til o‘rganish – bu faqat lingvistik strukturalarni (grammatika, leksika) o‘zlashtirish emas, balki murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tilning ham lingvistik, ham madaniy, ham pragmatik jihatlarini birlashtirish orqali til kompetensiyasini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Integrativ yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- *murakkab tizim sifatida til o‘rganish* – til alohida komponentlarga bo‘linmaydigan yaxlit tizim sifatida o‘rganiladi;

- *kontekstuallik* – til konstruksiyalari va grammatik qoidalar alohida emas, balki kontekstda, autentik materiallarda o‘rganiladi;

- *funksionallik* – grammatik strukturalar va leksik birliklar ularning real hayotda qanday funksiyaga ega ekanligidan kelib chiqib o‘rgatiladi;

- *madaniy komponent* – til va madaniyat ajralmas tushunchalar sifatida qaraladi, til o‘rganish jarayonida o‘rganilayotgan til madaniyati ham o‘rganiladi.

- *kommunikativ yo‘naltirilganlik* – barcha til ko‘nikmalari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) integral ravishda rivojlantiriladi.

Integrativ yondashuvda didaktik tamoyillar (ilmiylik, politexnizm, kasbiy yo‘nalganlik, muntazamlik, tizimlilik, uzviylik, tushunarlik, ko‘rgazmalilik, tabaqalashtirish) bilan uyg‘unlik va aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Integrativ yondashuv ko‘p hollarda yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillarning biror ma‘nodagi bir ko‘rinishida to‘la va aniq amalga oshirishni o‘rganilayotgan obyektning yaxlit tizim sifatida tasavvur qilishga imkon beradi [Zokirova, 2023].

Ispaniyalik mutaxassis S.Kollning fikriga ko‘ra: “Integrativ yondashuv har bir talabning o‘ziga xos ta‘lim olish ehtiyojlarini hisobga olib, o‘qitish jarayonini moslashtirish imkonini beradi, chunki unda har bir insonning o‘ziga xos o‘rganish uslubi borligi va chet tilini o‘zlashtirish jarayoni yuqori darajada individual ekanligi hisobga olinadi” [Coll, 2016].

Rossiyalik pedagog L.S. Znikina esa integrativ yondashuvning kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ta‘kidlab, uni “kasbiy ta‘limni modernizatsiyalashning asosiy omili” sifatida ko‘radi [Znikina, 2005].

Integrativ yondashuv o‘zida konstruktivizm, ijtimoiy-madaniy nazariya va kommunikativ tilni o‘qitish kabi bir necha asosiy ta‘lim nazariyalariga asoslanadi. Konstruktivizm o‘quvchilar bilimlarni tajriba va atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sir qilish orqali qurishini ilgari suradi. Ijtimoiy-madaniy nazariya o‘rganishda ijtimoiy o‘zaro ta‘sirlar va madaniy kontekstning muhim ekanligini bildiradi. Kommunikativ tilni o‘qitish muloqot uchun tildan amaliy foydalanishga e‘tibor qaratadi, kontekst va o‘zaro ta‘sirning muhimligini ifodalaydi [Fernández Jódar, 2003].

Integrativ yondashuvning til o‘qitish sohasidagi tarixiy rivojlanishi

Integrativ yondashuv til o‘qitish metodikasida yangi yo‘nalish bo‘lmasa-da, so‘nggi yillarda uni qo‘llash doirasi va samaradorligini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. 20-asrning o‘rtalarida til o‘qitishda asosan

audiolingval va grammatik-tarjima metodlari ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, 70-80-yillarda kommunikativ yondashuv keng tarqala boshladi. 90-yillarga kelib ushbu metodlarning har birining cheklovlari aniqlana boshlangach, til o‘qitish metodikasi turli yondashuvlarni birlashtirishga intila boshlandi [Richards & Rodgers, 2014].

Amerikalik olim S.D. Krashen “Ikkinchi tilni o‘rganish nazariyasi” (“Second Language Acquisition Theory”) doirasida “Input hypothesis” (“kiruvchi ma’lumot gipotezasi”)ni ilgari surdi. Unga ko‘ra, talabalar tilni muvaffaqiyatli o‘rganishlari uchun tushunarlik darajasida bo‘lgan ma’lumot (input)ni qabul qilishlari zarur [Krashen, 1977]. Shuningdek, u “Affective Filter Hypothesis” (“Affektiv filtr gipotezasi”) nazariyasida talabalar til o‘rganish jarayonida stress va xavotirdan holi bo‘lishlari lozim ekanliklarini qayd etgan [Krashen, 1982].

Tilshunos N.Xomskiy generativ grammatika va universal grammatika nazariyasini ilgari surgan. U til o‘rganish jarayonida quyidagi ikkita holatga alohida e’tibor berish kerakligini bildirgan: a) talabalarning tug‘ma til qobiliyatlari; b) tilni tabiiy ravishda o‘rganish jarayoni [Chomsky, 1965, 1981, 2000]. L.Vigotskiy esa til o‘rganishda ijtimoiy muhit va madaniy kontekstning ahamiyati haqida fikr yuritadi. U “Zone of Proximal Development” (ZPD) (“proksimal rivojlanish zonasi”) tushunchasini tavsiya etib, bu talabalarning o‘zlashtira olish darajasi va qo‘llab-quvvatlash bilan erishishlari mumkin bo‘lgan daraja o‘rtasidagi farqni ko‘rsatgan [Vygotksy, 1978].

Ispan tilini o‘qitish sohasida esa M.K. Uorfod tilni o‘rganishda madaniy kontekstning ahamiyatini ta’kidlab: “Ispan tili grammatikasini o‘qitishni til qo‘llaniladigan madaniy kontekstdan ajratib bo‘lmaydi. Grammatik tuzilmalar o‘zining to‘liq ma’nosini faqat ona tilida so‘zlashuvchilarning madaniy va ijtimoiy muhitida tushunilgandagina kasb etadi” [Warford, 2010].

O‘zbekistonda esa integrativ yondashuvning til o‘qitish sohasidagi qo‘llanilishi bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, M.Toshxonov filologiya fakulteti talabalariga chet tilini o‘qitishda integral yondashuvning samaradorligini tadqiq etgan [Toshxonov va boshq., 2007]. T.Oltiyev esa ispan tilining amaliy grammatikasini talabalarga tez va oson o‘rgatish texnikasini ishlab chiqib, uni dars jarayonlariga tatbiq etgan [Oltiyev, 2007].

Integrativ yondashuvning pedagogik va psixologik asoslari

Integrativ yondashuvning pedagogik va psixologik asoslari bir necha nazariyalarga tayanadi. Birinchidan, bu yondashuv konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ya’ni bilim beruvchi tomonidan tayyor holda beriladigan emas, balki o‘rganuvchi tomonidan o‘z tajribasi va faoliyati davomida shakllantiriladigan jarayondir.

Shveytsariyalik psixolog J.Piaje bilimni o‘zlashtirishning kognitiv rivojlanish nazariyasini yaratdi. Uning fikricha, inson psixikasi o‘zib borishi bilan atrof-muhitdan olingan ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyati o‘zgaradi [Piaget, 1967]. Integrativ yondashuv aynan shu nazariyaga tayangan holda, talabalarning ham intellektual, ham emotsional jihatdan rivojlanishini hisobga oladi.

Rossiyalik psixolog L.S. Vigotskiy esa ta’limning ijtimoiy-madaniy nazariyasini

ishlab chiqdi. Uning “Proksimal rivojlanish zonasi” nomli konsepsiyasi talabalarning mustaqil ravishda erisha oladigan bilim darajasi va qo‘llab-quvvatlash orqali erishishi mumkin bo‘lgan daraja o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Integrativ yondashuv aynan shu farqni qoplashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi talabalarga turli xil yordam va qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini qo‘llashi mumkin [Vygotsky, 1978].

Amerikalik psixolog X.Gardner “ko‘p qirrali intellekt nazariyasi” (“Theory of Multiple Intelligences”)ni ilgari surdi. Uning g‘oyasiga ko‘ra, insonlar bir necha turdagi intellekt (lingvistik, musiqiy, mantiqiy-matematik, fazoviy, kinestetik, interpersonal, intrapersonal va tabiiy)ga ega bo‘lib, har bir turni alohida rivojlantirish mumkin. Integrativ yondashuv turli xil o‘quv faoliyatlari va materiallarini qo‘llash orqali talabalarning barcha turdagi intellektlarini rivojlantirishga yordam beradi [Gardner, 2011].

Madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish integrativ yondashuvning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ispan olimi K.Gonsales Di Pyerroning fikricha: “Madaniyatlararo kompetensiya til o‘rganishning muhim qismi bo‘lib, u talabalarga turli madaniy kontekstlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish va ona tilida so‘zlashuvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi” [González Di Pierro, 2010].

Integrativ yondashuvning yana bir muhim jihati metakognitiv strategiyalarni rivojlantirishdir. Bu orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil baholash, kuzatish va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. J.X. Flavell metakognitiv jarayonlar haqida shunday yozadi: “Til o‘rganuvchilarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish ularning nafaqat til bilimlarini, balki umuman olganda, o‘rganish strategiyalarini ham takomillashtirishga yordam beradi” [Flavell, 1979].

Integrativ yondashuvning psixologik jihatlari orasida motivatsiya alohida o‘rin tutadi. Z.Dorney til o‘rganishdagi motivatsiya nazariyasi to‘g‘risida: “Motivatsiya bilan til o‘rganish yutuqlari o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud: yuqori motivatsiya til o‘rganish natijalarini yaxshilaydi, muvaffaqiyatli natijalar esa, o‘z navbatida, motivatsiyani oshiradi” [Dörnyei, 2005].

Ispan tili grammatikasini o‘qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati

Ispan tili grammatikasi o‘zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ispan tilida fe‘l tuslanishi, zamonlar sistemasi, ‘subxunktiv’ (istak) mayli (modo subjuntivo), artikllar, rod kategoriyasi kabi o‘zbek tilida uchramaydigan yoki boshqacha ifodalanadigan grammatik hodisalar mavjud. Bu esa o‘zbek talabalari uchun ispan tili grammatikasini o‘zlashtirishda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini o‘qitishda grammatik qoidalarni, birinchidan, til funksiyalari bilan bog‘liq holda, ikkinchidan, madaniy kontekst bilan bog‘lab, uchinchidan, turli xil nutq faoliyati turlari (o‘qish, tinglash, gapirish, yozish) orqali o‘rgatishni nazarda tutadi.

Ispan tadqiqotchisi M.A. Martin Sanches ta‘biri bilan aytganda: “Grammatika alohida qoidalar to‘plami sifatida emas, balki real kontekstlarda samarali muloqotga erishish vositasi sifatida o‘qitilishi kerak” [Martín Sánchez, 2008].

Granada universiteti professori M.L. Peres-Kanyado o‘z tadqiqotlarida shunday deydi: “Integrativ yondashuv orqali grammatikaning o‘qitilishi til o‘rganuvchilarni

nafaqat qoidalarga asoslangan holda bilishga, balki olingan bu bilimlarni muloqotda amaliy qo'llashga undaydi. CLIL modeli ushbu integratsiyani samarali tarzda ta'minlaydi" [Pérez-Cañado, 2011].

Til o'rgatishda grammatika alohida modul sifatida emas, kommunikativ holatlarda qo'llanadigan vosita sifatida talqin etilishi zarur. Ispan tili o'qitilishida integrativ yondashuv nafaqat grammatika, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi [Serrano & Miralpeix, 2013].

O'zbekistonlik olim T.Malikov esa ispan tili grammatikasini o'rgatishda o'zbek va ispan tillaridagi tipologik farqlarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi: "Ispan va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lganligi sababli, talabalarga ispan tili grammatikasini o'rgatishda ikkala til o'rtasidagi struktur farqlarni e'tiborga olish va ikki til sistemasini qiyosiy tahlil qilish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish zarur" [Malikov, 2020; 78].

Integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini o'qitishda quyidagi afzalliklarga ega:

1. Grammatik qoidalarni kontekstda o'rgatish: integrativ yondashuv grammatik qoidalarni alohida emas, balki kontekst va autentik materiallar (matnlar, audio va video materiallar) orqali o'rgatishni taqozo etadi. Bu esa talabalarga grammatik strukturalarning amaliy qo'llanilishini ko'rish va tushunish imkoniyatini beradi.

2. Madaniy komponentni integratsiyalash: ispan tili grammatikasini o'rgatishda Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarining madaniyati, tarixi, adabiyoti, san'ati bilan bog'liq materiallardan foydalanish grammatik qoidalarni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

3. Nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish: integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini o'rgatish jarayonida o'qish, tinglash, gapirish va yozish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi.

4. Interaktiv metodlarni qo'llash: roli o'yinlar, muhokamalar, debatlar, loyihalar kabi interaktiv metodlar orqali talabalarining ispan tili grammatikasini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning faol ishtirokini ta'minlash mumkin.

5. Individual yondashuv: har bir talabaning o'ziga xos o'rganish uslubi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ispan tili grammatikasini o'rgatish jarayonini individuallashtirish imkoniyati.

Ispan tadqiqotchilari M.Fuertes Gutierrez va M.X. Garsiya Folgado tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, integrativ yondashuv bilan o'qitilgan talabalar guruhida an'anaviy usullarda o'qitilgan talabalarga nisbatan ispan tili grammatikasini o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lgan [Fuertes Gutiérrez & García Folgado, 2020].

O'zbekiston OTMlarida ispan tilini o'qitishning zamonaviy holati

Hozirgi kunda O'zbekiston OTMlarida ispan tilini o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jihatni inobatga olgan holda, bu tilni o'qitishni O'zbekistonda ommalashtirish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ispan tilini o'qitish metodikasi va samaradorligini oshirish borasidagi yangi izlanishlar tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda va eng samarali loyihalar o'quv darsliklari

va uslubiy qo‘llanmalar tarkibiga kiritilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022/2023 o‘quv yilida 8 ta OTMda ispan tili o‘qitiladi, ularda jami 1200dan ortiq talaba tahsil olmoqda. Bu ko‘rsatkich 2018/2019 o‘quv yiliga nisbatan 45%ga ortgan.

2022-yilda OTMlaridagi ispan tili o‘qituvchilari orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma o‘qitish jarayonida quyidagi muammolar aniqlangan:

- 1) ispan tilida yuqori sifatli o‘quv materiallarining yetishmasligi (65%);
- 2) talabalarning ispan tili grammatikasini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari (58%);
- 3) zamonaviy o‘qitish metodikalaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi (47%);
- 4) autentik ispan tili muhitining yetishmasligi (75%);
- 5) o‘qituvchilarning innovatsion metodlar bo‘yicha malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi (52%).

O‘zbekiston OTMlarida ispan tilini o‘qitish jarayonida asosan quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

A. Grammatik-tarjima metodi. Ushbu metodda ispan tili grammatik qoidalarini o‘rganish va tarjima mashqlarini bajarish orqali tilni o‘zlashtirish nazarda tutiladi. Afzalligi – grammatik qoidalarni batafsil o‘rganish imkoniyati; kamchiligi – kommunikativ ko‘nikmalarning yetarlicha rivojlanmasligi.

B. Audiolingval metod. Mazkur metodda ispan tilidagi dialoglar va nutq namunalarini eshitish va takrorlash orqali tilni o‘zlashtirish ko‘zda tutiladi. Afzalligi – talaffuz va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish; kamchiligi – grammatik qoidalarni yetarlicha tushunmaslik.

D. Kommunikativ yondashuv. Ayni yondashuvda ispan tilini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash orqali o‘rganish nazarda tutiladi. Afzalligi – kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish; kamchiligi – grammatik xatolarning ko‘p uchrashi.

E. Kognitiv yondashuv. Joriy yondashuvda ispan tili strukturalarini ongli ravishda tushunish va qo‘llash ko‘zda tutiladi. Afzalligi – tilning tuzilishini chuqur tushunish; kamchiligi – intuitiv o‘rganish jihatlariga kam e‘tibor qaratilishi.

Xitoylik tadqiqotchi Ch.Yu ta‘kidlaganidek: “Ispan tilini o‘qitishda birgina yondashuvga tayanish yetarli emas. Turli yondashuvlarning eng samarali jihatlarini birlashtirgan integrativ metodika talabalarning til kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi” [Yu, 2024]. Hozirgi kunda O‘zbekiston OTMlarida ispan tilini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, zamonaviy metodlar va yondashuvlarni joriy etish, o‘quv materiallarini yangilash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020–2022-yillarda 5 ta yangi ispan tili darsligi va 8 ta o‘quv qo‘llanma nashr etilgan, 35 nafar ispan tili o‘qituvchisi xalqaro malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil metodi – til o‘qitish nazariyalari va integrativ yondashuv

haqidagi ilmiy-metodik adabiyotlar o'rganildi. Xususan, S.D. Krashen, N.Xomskiy, L.Vigotskiy kabi olimlarning til o'qitish nazariyalari, shuningdek, M.A. Martin Sanches, M.L. Peres-Kanyado, K.Gonsales Di Pyerro kabi ispan va M.Toshxonov, T.Oltiyev, T.Malikov, kabi o'zbek olimlarining ispan tilini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlari tahlil qilindi.

■ Anketa so'rovlari – filologiya yo'nalishi talabalari va ispan tili o'qituvchilari o'rtasida ispan tilini o'rganish jarayoni va integrativ yondashuvdan foydalanish bo'yicha maxsus ishlab chiqilgan so'rovlar o'tkazildi. So'rovnoma jami 120 nafar talaba va 15 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Talabalar uchun so'rovnoma ispan tili grammatikasini o'rganishdagi qiyinchiliklar, qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining samaradorligi, integrativ yondashuvga munosabat kabi savollarni o'z ichiga olgan. O'qituvchilar uchun tayyorlangan so'rovnoma esa ispan tili grammatikasini o'qitish jarayonidagi qiyinchiliklar, qo'llanilayotgan metodlar, integrativ yondashuvni qo'llash imkoniyatlari va muammolari xususidagi savollarni qamrab oldi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdor jihatidan tahlil qilinib, asosiy tendensiyalar aniqlandi va natijalar umumlashtirildi.

■ Tajriba-sinov – tadqiqot doirasida pedagogik eksperiment o'tkazildi. Bunda talabalar tajriba va nazorat guruhlariga bo'linib, tajriba guruhda (60 nafar talaba) integrativ yondashuv asosida o'qitish, nazorat guruhida (60 nafar talaba) esa an'anaviy usullar bilan ta'lim jarayonlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari 2023/2024 o'quv yili davomida 6 oy mobaynida o'tkazildi.

Tajriba guruhida ispan tili grammatikasini o'qitishda:

– grammatik mavzular madaniy kontekstda (matnlar, audio va video materiallar, musiqa) taqdim etildi;

– interaktiv metodlar (rolli o'yinlar, muhokamalar, loyihalar) qo'llanildi;

– zamonaviy texnologiyalar (kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, veb-resurslar) dan foydalanildi;

– nutq faoliyatining barcha turlari (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) integral ravishda rivojlantirildi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy grammatik-tarjima metodi asosida darslar olib borildi. Tajriba-sinov boshida va oxirida har ikki guruhda ham ispan tili grammatikasini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun testlar o'tkazildi.

■ Kuzatish – integrativ yondashuvdan foydalanilgan darslar muntazam kuzatib borildi va o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan uslublar tahlil qilindi. Kuzatish natijalari maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida qayd etildi va dars jarayonida talabalar ishtiroki hamda faolligi baholandi. Kuzatish davomida talabalarning ispan tili grammatikasini o'zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar, qo'llanilayotgan integrativ metodlarning samaradorligi, talabalarning faollik darajasi kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratildi.

■ Intervyu – 15 nafar o'qituvchi va 30 nafar talaba bilan to'liq intervyular o'tkazildi. Intervyular yarim-strukturalashtirilgan shaklda bo'lib, integrativ yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga qaratildi. Intervyular audioyozuvga olinib, so'ngra kontent-tahlil metodi yordamida o'rganildi. Intervyular

ispan tili grammatikasini o'qitishda integrativ yondashuvning qo'llanilishi, yutuqlar va muammolar, takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni qamrab oldi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqot davomida olingan natijalar matematik statistik tahlil qilinib, sifat va miqdor jihatidan umumlashtirildi. Natijalarning ishonchliligi turli metodlar orqali olingan ma'lumotlarni taqqoslash va bir-birini to'ldiruvchi metodlardan foydalanish orqali ta'minlandi.

So'rovnoma natijalari

So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning 72%i ispan tili grammatikasini o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishini ta'kidlashgan. Eng ko'p qiyinchilik tug'diradigan grammatik mavzular quyidagilar ekanligi aniqlandi:

- 1) 'subxunktiv' mayli (Modo Subjuntivo) – 85%;
- 2) fe'l zamonlari tizimi (Sistema de Tiempos Verbales) – 78%;
- 3) Ser/Estar fe'llarining qo'llanilishi – 65%;
- 4) predloglar (Preposiciones) – 62%;
- 5) artikllar (Artículos) – 58%;

Quyi ko'rsatkichlar bilan esa:

- 1) rod va son kategoriyasi – 45%;
- 2) shaxs olmoshlari – 42%;
- 3) zamonlar moslashuvi (Concordancia) – 40%;
- 4) fe'l tuslanishi – 38%;
- 5) sifat darajalari – 32%.

O'qituvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ispan tili grammatikasini o'qitishda quyidagi metodlar keng qo'llanilishi aniqlandi:

- 1) grammatik-tarjima metodi – 68%;
- 2) kommunikativ yondashuv – 45%;
- 3) audiolingval metod – 32%;
- 4) kognitiv yondashuv – 25%;
- 5) integrativ yondashuv – 18%.

Quyi ko'rsatkichlar bilan esa:

- 1) jismoniy harakatlar asosidagi yondashuv – 12%;
- 2) tabiiy yondashuv – 8%;
- 3) to'g'ridan to'g'ri metod – 7%;
- 4) ko'p tilli yondashuv – 5%;
- 5) neyrolingvistik dasturlash – 3%.

Ham talabalar, ham o'qituvchilar ispan tili grammatikasini o'qitishda qo'llaniladigan metodlarni takomillashtirish zarurligini ta'kidlashgan. Talabalarning 82%i interaktiv metodlardan ko'proq foydalanish, 76%i real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan grammatik materiallarni o'rganish, 68%i zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni istashgan.

O'qituvchilarning 75%i ispan tili grammatikasini o'qitishda integrativ yondashuvni qo'llash samarali ekanligini tan olishgan, ammo ularning faqat 18%i bu

yondashuvni muntazam qo‘llashini ta’kidlashgan. Integrativ yondashuvni qo‘llashdagi asosiy to‘siqlar sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

- 1) metodik qo‘llanmalarining yetishmasligi – 82%;
- 2) integrativ yondashuv bo‘yicha malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi – 68%;
- 3) o‘quv materiallarini tayyorlash uchun vaqtning yetishmasligi – 65%;
- 4) texnik jihozlar bilan ta’minlanish darajasining pastligi – 58%;
- 5) an’anaviy o‘qitish metodlaridan voz kechish qiyinligi – 45%.

Undan so‘ngra esa quyidagilar:

- 1) guruhdagi talabalar sonining ko‘pligi – 42%;
- 2) talabalar motivatsiya darajasining pastligi – 38%;
- 3) baholash tizimining cheklovlari – 32%;
- 4) ma’muriy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi – 28%.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuvni qo‘llash ispan tili grammatikasini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi, ammo bu yondashuvni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, metodik qo‘llanmalar yaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Tajriba-sinov ishlari natijalari

Tajriba-sinov ishlari davomida integrativ yondashuv asosida o‘qitilgan tajriba guruhi va an’anaviy metodlar asosida o‘qitilgan nazorat guruhi o‘rtasida ispan tili grammatikasini o‘zlashtirish darajasida sezilarli farqlar aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari boshida har ikki guruhda ispan tili grammatikasini o‘zlashtirish darajasi deyarli bir xil bo‘lgan (tajriba guruhida – 62%, nazorat guruhida – 64%). Tajriba-sinov ishlari oxirida esa tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi 84%ga yetgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 71%ni tashkil etdi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Ispan tili grammatikasini o‘zlashtirish darajasi

Daraja	Tajriba guruh		Nazorat guruhi	
	Tajriba-sinov ishlari boshida	Tajriba-sinov ishlari oxirida	Tajriba-sinov ishlari boshida	Tajriba-sinov ishlari oxirida
Yuqori (85-100%)	15%	38%	16%	22%
O‘rta (70-84%)	32%	46%	30%	38%
Past (55-69%)	38%	14%	39%	31%
Juda past (<55%)	15%	2%	15%	9%
O‘rtacha ko‘rsatkich	62%	84%	64%	71%

Tajriba guruhida, ayniqsa, ispan tili grammatikasining eng murakkab mavzularini o‘zlashtirishda sezilarli farqlar kuzatildi. Masalan, ‘subxunktiv’ maylini o‘zlashtirish darajasi tajriba guruhida 78%ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 62%ga teng bo‘ldi. Fe’l zamonlari tizimini o‘zlashtirish darajasi tajriba guruhida 82%, nazorat guruhida esa 68%ga teng bo‘ldi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Murakkab grammatik mavzularni o'zlashtirish darajasi

Grammatik mavzu	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Farq
'Subxunktiv' mayli	78%	62%	+16%
Fe'l zamonlari tizimi	82%	68%	+14%
Ser/Estar fe'llarining qo'llanilishi	86%	71%	+15%
Predloglar	81%	70%	+11%
Artikllar	88%	75%	+13%
O'rtacha ko'rsatkich	83%	69%	+14%

Tajriba guruhida nafaqat grammatik bilimlar, balki til kompetensiyasining boshqa jihatlari ham sezilarli darajada yaxshilanganligi aniqlandi:

1) nutq faoliyatining barcha turlari (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) integral ravishda rivojlangan;

2) leksik birliklarni o'zlashtirish darajasi 32%ga oshgan;

3) tildan amaliy foydalanish ko'nikmalari 28%ga yaxshilangan;

4) ispan tili madaniyatini tushunish darajasi 45%ga ortgan;

5) ispan tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya 37%ga ko'tarilgan.

Tajriba guruhidagi talabalarining 85%i integrativ yondashuv asosida ispan tili grammatikasini o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali deb baholashgan. Talabalarining 78%i bu yondashuv ularga nafaqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish, balki ulardan real hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam berganini ta'kidlashgan. Quyidagi jadval tajriba va nazorat guruhlarida ispan tili grammatikasini o'zlashtirish dinamikasini ko'rsatadi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarida ispan tili grammatikasini o'zlashtirish dinamikasi

Oy	Tajriba guruh	Nazorat guruhi
1	62%	64%
2	68%	66%
3	72%	67%
4	78%	69%
5	81%	70%
6	84%	71%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida ispan tili grammatikasini o'zlashtirish dinamikasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori. Bu esa integrativ yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kuzatish va intervyu natijalari

Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida o'tkazilgan darslarda talabalarining faollik darajasi an'anaviy usullarda o'tkazilgan darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Integrativ yondashuv qo'llanilgan darslarda talabalarining 78%i faol ishtirok etgan bolsa, an'anaviy metodlar qo'llanilgan darslarda bu ko'rsatkich 45%ni tashkil etgan.

Integrativ yondashuv asosida o'tkazilgan darslarda quyidagi ijobiy jihatlar

kuzatilgan:

- 1) talabalarning ispan tili grammatikasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishining ortishi;
- 2) guruh ichidagi o‘zaro hamkorlik va muloqotning yaxshilanishi;
- 3) talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- 4) ispan tili grammatikasini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatining oshishi;
- 5) ispan tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi.

O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyular natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- 1) integrativ yondashuvni qo‘llash ispan tili grammatikasini o‘qitish samaradorligini oshiradi;
- 2) u talabalarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantirishga yordam beradi;
- 3) integrativ yondashuvni qo‘llash uchun o‘qituvchilardan qo‘shimcha tay-yorgarlik va ko‘proq vaqt talab etiladi;
- 4) zamonaviy texnologiyalardan foydalanish integrativ yondashuvning samaradorligini oshiradi;
- 5) an’anaviy va innovatsion metodlarni optimal nisbatda qo‘llash eng yaxshi natija beradi.

O‘qituvchilarning 85%i integrativ yondashuvning afzalliklarini tan olishgan bo‘lsa-da, ularning 62%i bu yondashuvni qo‘llashda metodik qo‘llanmalar va o‘quv materiallarining yetishmasligini ta’kidlashgan. O‘qituvchilarning 78%i integrativ yondashuv bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarining zarurligini qayd etishgan.

Talabalar bilan o‘tkazilgan intervyular esa quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

- 1) talabalarning 82%i integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini o‘rganishni qiziqarli va samarali qilishini ta’kidlashgan;
- 2) 75%i bu yondashuv ularga grammatik qoidalarni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam berganini qayd etishgan;
- 3) 68%i ayni yondashuv orqali ispan tili grammatikasini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirganini ta’kidlashgan;
- 4) 88%i zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish til o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishini qayd etishgan;
- 5) 72%i madaniy komponentning kiritilishi til o‘rganish motivatsiyasini oshirishini ta’kidlashgan.

Talabaning fikri (tajriba guruhidan): “Integrativ yondashuv menga ispan tili grammatikasini nafaqat nazariy jihatdan o‘rganish, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini berdi. ‘Subxunktiv’ mayli kabi murakkab grammatik mavzularni madaniy kontekstda o‘rganish ularni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam berdi”.

O‘qituvchining fikri: “Integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini o‘qitishda yangi imkoniyatlar ochib berdi. Talabalar nafaqat grammatik qoidalarni, balki ularni

real kontekstda qo‘llashni ham o‘rganishadi. Bu esa ularning til kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi”.

Ispan tili grammatikasini o‘qitishda integrativ yondashuvning imkoniyatlari va muammolari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ispan tili grammatikasini o‘qitishda integrativ yondashuvning quyidagi imkoniyatlari aniqlandi:

■ Grammatik kompetensiyani kompleks rivojlantirish: integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini nafaqat qoidalar sifatida, balki amaliy qo‘llaniladigan til materiallari sifatida o‘rgatish imkoniyatini beradi.

■ Madaniy kompetensiyani rivojlantirish: ispan tili grammatikasini madaniy kontekstda o‘rgatish orqali talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

■ Motivatsiyani oshirish: integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini o‘rganishni qiziqarli va amaliy ahamiyatga ega jarayonga aylantiradi, bu esa talabalarning motivatsiyasini oshiradi.

■ Nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish: integrativ yondashuv tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi.

■ Individual yondashuv: har bir talabaning o‘ziga xos o‘rganish usuli va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ispan tili grammatikasini o‘rgatish jarayonini individuallashtirish imkoniyati.

Shu bilan birga, ispan tili grammatikasini o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llashda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

■ Metodik ta‘minotning yetishmasligi: integrativ yondashuv asosida ispan tili grammatikasini o‘qitish uchun maxsus ishlab chiqilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik tavsiyalarning yetishmasligi.

■ O‘qituvchilarning malakasi: integrativ yondashuvni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilardan alohida bilim, ko‘nikmalar va tajriba talab etiladi, bu esa doimiy malaka oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

■ Texnik imkoniyatlarning cheklanganligi: zamonaviy texnologiyalar va multimedia resurslaridan foydalanish integrativ yondashuvning muhim komponenti hisoblanadi, ammo barcha ta‘lim muassasalari ham yetarli darajada texnik jihozlanmagan.

■ Vaqt va resurslarning cheklanganligi: integrativ yondashuv asosida darslarni tayyorlash va o‘tkazish uchun o‘qituvchilardan ko‘proq vaqt va kuch talab etiladi.

■ Baholash tizimining nomuvofiqligi: an’anaviy baholash tizimi ko‘pincha grammatik bilimlarni tekshirishga qaratilgan bo‘lib, integrativ yondashuv natijalarini to‘liq aks ettirmaydi.

Integrativ yondashuv asosida ispan tili grammatikasini o‘qitish modeli

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi integrativ yondashuv asosida ispan tili grammatikasini o‘qitish modeli ishlab chiqildi (4-jadvalga qarang):

4-jadval.

Integrativ yondashuv asosida ispan tili grammatikasini o'qitish modeli

Komponent	Mazmuni	Metodlar va vositalar
Maqsad	Ispan tili grammatik kompetensiyasini kompleks rivojlantirish	Integrativ yondashuv tamoyillari
Mazmun	Ispan tili grammatikasi + madaniy komponent + kommunikativ komponent	Grammatik qoidalar, autentik materiallar, madaniy kontekst
Metodlar	Interaktiv, kommunikativ, kognitiv, multimediyaviy	Rolli o'yinlar, muhokamalar, loyihalar, keys-stadi
Vositalar	An'anaviy + zamonaviy texnologiyalar	Darsliklar, audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, mobil ilovalar
Shakllar	Auditoriya mashg'ulotlari + mustaqil ish + amaliyot	Ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar
Baholash	Kompleks baholash	Testlar, portfolio, loyihalar, amaliy topshiriqlar
Natija	Ispan tili grammatik kompetensiyasi	Grammatik bilimlar, kommunikativ ko'nikmalar, madaniy kompetensiya

Mazkur model ispan tili grammatikasini integrativ yondashuv asosida o'qitishni kompleks tarzda amalga oshirishga yordam beradi va uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- *Maqsadning kompleksligi:* model nafaqat grammatik bilimlarni, balki kommunikativ kompetensiyani va madaniy kompetensiyani ham rivojlantirishga qaratilgan.

- *Mazmunning kengligi:* ispan tili grammatikasi bilan bir qatorda madaniy va kommunikativ komponentlar ham o'quv jarayoniga kiritiladi.

- *Metodlarning xilma-xilligi:* turli xil metodlar (interaktiv, kommunikativ, kognitiv, multimediyaviy) kombinatsiyasi qo'llaniladi.

- *Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:* an'anaviy o'quv vositalari bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar (kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, internet resurslari)dan ham foydalaniladi.

- *Kompleks baholash:* talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash uchun turli xil metodlar (testlar, portfolio, loyihalar, amaliy topshiriqlar) qo'llaniladi.

Ayni model asosida ispan tili grammatikasini o'qitish jarayonini tashkil etish uchun quyidagi bosqichlar taklif etiladi:

1. *Tayyorgarlik bosqichi:*

- dastlabki bilim va ko'nikmalarni aniqlash;
- o'quv materiallarini tayyorlash;
- texnik vositalarni tayyorlash.

2. *Motivatsiya bosqichi:*

- talabalarning qiziqishini uyg'otish;
- o'rganilayotgan grammatik mavzuning amaliy ahamiyatini ko'rsatish;
- madaniy kontekstni tanishtirish.

3. *Asosiy bosqich:*

- grammatik materialni taqdim etish;
- grammatik qoidalarni tushuntirish;
- autentik materiallar bilan ishlash;
- interaktiv mashqlarni bajarish;
- kommunikativ vaziyatlarda oʻrganilgan grammatik strukturalarni qoʻllash.

4. *Mustahkamlash bosqichi:*

- oʻrganilgan grammatik materialni turli kontekstlarda qoʻllash;
- loyihalar ustida ishlash;
- rolli oʻyinlarda ishtirok etish;
- real kommunikativ vaziyatlarda amaliyot oʻtash.

5. *Baholash bosqichi:*

- grammatik bilimlarni tekshirish;
- kommunikativ kompetensiyani baholash;
- madaniy kompetensiyani baholash;
- oʻz-oʻzini baholash va refleksiya.

Integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan ushbu model ispan tili grammatikasini oʻqitish samaradorligini oshirish, talabalarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirish va ularning ispan tilini oʻrganishga boʻlgan motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ispan tilini oʻqitishda integrativ yondashuvning ahamiyati va samaradorligini tasdiqlaydi. Integrativ yondashuv nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki madaniy va amaliy koʻnikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tizimli va kompleks pedagogik strategiya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini oʻqitishda yuqori samaradorlikka ega. Eksperimental tadqiqot natijalariga koʻra, integrativ yondashuv asosida oʻqitilgan talabalarning ispan tili grammatikasini oʻzlashtirish darajasi anʼanaviy metodlar asosida oʻqitilgan talabalarga nisbatan 13%ga yuqori boʻlgan.

2. Integrativ yondashuv ispan tili grammatikasini oʻqitishda quyidagi afzalliklarga ega:

- grammatik qoidalarni madaniy kontekstda oʻrgatish;
- nutq faoliyatining barcha turlarini kompleks rivojlantirish;
- talabalarning motivatsiyasini oshirish;
- kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish;
- madaniy kompetensiyani rivojlantirish.

3. Ispan tili grammatikasini oʻqitishda integrativ yondashuvni qoʻllash uchun quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi lozim:

- oʻqituvchilarning malakasini oshirish;
- metodik taʼminotni yaxshilash;
- texnik imkoniyatlarni kengaytirish;
- baholash tizimini takomillashtirish;

– o‘quv materiallarini yangilash.

4. Integrativ yondashuv asosida ispan tili grammatikasini o‘qitish modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi eksperimental tarzda tasdiqlandi. Bu model ispan tili grammatikasini madaniy kontekstda, kommunikativ yo‘naltirilgan tarzda, turli xil metodlar va vositalar yordamida o‘rgatishni nazarda tutadi.

5. Ispan tili grammatikasini integrativ yondashuv asosida o‘qitish uchun ishlab chiqilgan mashqlar sistemasi talabalarning grammatik kompetensiyasini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Bu mashqlar sistemasi:

- grammatik qoidalarni tushunish;
- grammatik strukturalarni to‘g‘ri qo‘llash;
- real kommunikativ vaziyatlarda grammatik bilimlardan foydalanish;
- madaniy kontekstda grammatik strukturalarni tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni. (2019-yil 8-oktabr). O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. *Lex.uz*‘da. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
2. Dörnyei, Z. (2005). *The psychology of the language learner: Individual differences in second language acquisition*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
3. Fernández Jódar, R. (2003). La organización del discurso en polaco y español como generador de incomprensión. En J.Wachowska, B.Luczak, A.Gregori i Gomis y A.M. López González (Coords.), *El enfoque social y cultural en los estudios lingüísticos y literarios* (pp. 125–134). Poznań: Uniwersytet im. Adama Mickiewicza.
4. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>.
5. Fuertes Gutiérrez, M., & García Folgado, M.J. (2020). *Enseñanza de la gramática en ELE: Resultados de investigación y nuevas propuestas*. España: Valencia.
6. Gardner, H. (2011). *Frames of mind: The theory of multiple intelligences* (3rd ed.). New York, NY: Basic Books.
7. González Di Pierro, C. (2010). La competencia intercultural en la enseñanza del español como lengua extranjera: Una investigación cualitativa en un programa de inmersión. *Tesis doctoral*. Murcia: Universidad de Murcia.
8. Hayitov, A.I. (2021). *Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi*. Toshkent: «Zuxra Baraka Biznes» MChJ bosmaxonasi.
9. Coll, C. (2016). La personalización del aprendizaje escolar: El qué, el por qué y el cómo de un reto insoslayable. In J.M. Vilalta (Ed.), *Reptes de l’educació a Catalunya: Anuari d’Educació 2015* (pp. 1–37). Barcelona: Fundació Jaume Bofill.
10. Krashen, S.D. (1977). Some issues relating to the monitor model. In H.D. Brown, C.A. Yorio, & R.H. Crymes (Eds.), *On TESOL ’77: Teaching and learning English as a second language: Trends in Research and Practice* (pp. 144–158). Washington, DC: TESOL.
11. Krashen, S.D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
12. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and principles in language teaching* (3rd ed.). Oxford, UK: Oxford University Press.
13. Malikov, T. (2020). *Ispan va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish*. Toshkent: “Ilm-ziyo” nashriyoti.
14. Martín Sánchez, M.Á. (2008). El papel de la gramática en la enseñanza-aprendizaje de ELE. *Ogigia: Revista electrónica de estudios hispánicos*, 3, 29–41.

15. Mavlonova, R.A. (2005). *Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi*. Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
16. Oltiyev, T. (2007). *Ispan tili amaliy grammatikasi*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
17. Pérez-Cañado, M.L. (2011). CLIL research in Europe: past, present, and future. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 15(3), 315–341. <https://doi.org/10.1080/13670050.2011.630064>.
18. Piaget, J. (1967). *Six psychological studies* (D.Elkind, Ed.; A.Tenzer, Transl.). New York, NY: Random House.
19. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
20. Serrano, R., & Miralpeix, I. (2013). Review of doctoral research on second language teaching and learning in Spain (2008–2010). *Language Teaching*, 46(1), 87–107.
21. Toshxonov, M., Umbarova, T., Xolmatova, Sh. (2007). *Manual de la lengua Espanola*. Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
22. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
23. Warford, M.K. (2010). ¿Enseñar gramática y cultura en la lengua extranjera? Empezando en las zonas de mayor resistencia. *Hispania*, 93(2), 292–304.
24. Yu, Z. (2024). Metodología de la enseñanza de la literatura en la clase de ELE en España y su aplicación en la titulación de Filología Hispánica en China. *Tesis doctoral*. Madrid: Universidad Pontificia Comillas.
25. Znikina, L.S. (2005). Professional'no-kommunikativnaya kompetentsiya kak faktor povysheniya kachestva obrazovaniya menedzherov. *Diss. dok. ped. nauk*. Kemerovo: Kemerovskiy gosudarstvennyy universitet.
26. Zokirova, D.N. (2023). Integrativ yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli. *Ta'lim, fan va innovatsiya*, 2, 590–593.
27. Chekin, A.L. (2005). Professional'naya podgotovka uchitelya nachal'nykh klassov k obucheniyu matematike na osnove integrativnogo podkhoda. *Diss. dok. ped. nauk*. Moskva: Moskovskiy pedagogicheskiy gosudarstvennyy universitet.
28. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
29. Chomsky, N. (1981). *Lectures on government and binding: The Pisa lectures*. Dordrecht: Foris Publications.
30. Chomsky, N. (2000). *New horizons in the study of language and mind*. Cambridge: Cambridge University Press.
31. REFERENCES
32. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5847. (2019, October 8). On the approval of the concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
33. Chekin, A.L. (2005). Professional training of primary school teachers for teaching mathematics based on an integrative approach. *DSc thes. ped*. Moscow: Moscow Pedagogical State University.
34. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
35. Chomsky, N. (1981). *Lectures on government and binding: The Pisa lectures*. Dordrecht: Foris Publications.
36. Chomsky, N. (2000). *New horizons in the study of language and mind*. Cambridge: Cambridge University Press.
37. Coll, C. (2016). The personalization of school learning: The what, the why, and the how of an unavoidable challenge. In J.M. Vilalta (Ed.), *Challenges of Education in Catalonia: Education Yearbook 2015* (pp. 1–37). Barcelona: Fundació Jaume Bofill.
38. Dörnyei, Z. (2005). *The psychology of the language learner: Individual differences in*

- second language acquisition*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
39. Fernández Jódar, R. (2003). The organization of discourse in Polish and Spanish as a source of misunderstanding. In J.Wachowska, B.Luczak, A.Gregori i Gomis, & A.M. López González (Eds.), *The Social and Cultural Approach in Linguistic and Literary Studies* (pp. 125–134). Poznań: Adam Mickiewicz University.
 40. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>.
 41. Fuertes Gutiérrez, M., & García Folgado, M. J. (2020). *Teaching grammar in Spanish as a foreign language: Research results and new proposals*. Spain: Valencia.
 42. Gardner, H. (2011). *Frames of mind: The theory of multiple intelligences* (3rd ed.). New York, NY: Basic Books.
 43. González Di Pierro, C. (2010). Intercultural competence in the teaching of Spanish as a foreign language: A qualitative research in an immersion program. *PhD thes*. Murcia: University of Murcia.
 44. Hayitov, A.I. (2021). *Primary education pedagogy, innovation, and integration*. Tashkent: “Zuxra Baraka Biznes” LLC Printing House.
 45. Krashen, S.D. (1977). Some issues relating to the monitor model. In H.D. Brown, C.A. Yorio, & R.H. Crymes (Eds.), *On TESOL '77: Teaching and learning English as a second language: Trends in Research and Practice* (pp. 144–158). Washington, DC: TESOL.
 46. Krashen, S.D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
 47. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and principles in language teaching* (3rd ed.). Oxford, UK: Oxford University Press.
 48. Malikov, T. (2020). *Comparative study of Spanish and Uzbek languages*. Tashkent: ‘Science’ Publishing.
 49. Martín Sánchez, M.A. (2008). The role of grammar in the teaching–learning of Spanish as a foreign language. *Ogigia: Electronic Journal of Hispanic Studies*, 3, 29–41.
 50. Mavlonova, R.A. (2005). *Integrated pedagogy of primary education*. Tashkent: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
 51. Oltiyev, T. (2007). *Practical grammar of the Spanish language*. Publishing House of ‘Science & Technology’.
 52. Pérez-Cañado, M.L. (2011). CLIL research in Europe: past, present, and future. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 15(3), 315–341. <https://doi.org/10.1080/13670050.2011.630064>.
 53. Piaget, J. (1967). *Six psychological studies* (D.Elkind, Ed.; A.Tenzer, Transl.). New York, NY: Random House.
 54. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
 55. Serrano, R., & Miralpeix, I. (2013). Review of doctoral research on second language teaching and learning in Spain (2008–2010). *Language Teaching*, 46(1), 87–107.
 56. Toshkhonov, M., Umbarova, T., & Kholmatova, Sh. (2007). *Manual of the Spanish language*. Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
 57. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
 58. Warford, M.K. (2010). Teaching grammar and culture in the foreign language? Starting in the zones of greatest resistance. *Spain*, 93(2), 292–304.
 59. Yu, Z. (2024). Methodology of teaching literature in the ELE classroom in Spain and its application in the Hispanic Philology degree in China. *PhD thes*. Madrid: Comillas Pontifical University.
 60. Znikina, L.S. (2005). Professional-communicative competence as a factor in improving the quality of education of managers. *DSc thes. ped*. Kemerovo: Kemerovo State University.

61. Zokirova, D.N. (2023). Methodological model for preparing future specialists for professional-innovative activities based on the integrative approach. *Education, Science and Innovation*, 2, 590–593.